INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2025-yil yanvar- sentabr oylarida 32 691,4 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sish sur’ati 2024- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 128,9 % ni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 3 340,5 mlrd. so‘m yoki jami investisiyalar hajmining 10,2 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 145,1 % o‘zlashtirildi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 29 350,9 mlrd. so‘m yoki jami investisiyalar hajmining 127,3 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 89,8 % o‘zlashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalar yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo‘shimcha qiymat solig‘ini qo‘shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to‘lov amalga oshirilgan paytdan qat’iy nazar, haqiqatda o‘zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.

So‘nggi 5 yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 3,0 martaga ko‘payib, o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda.

2025-yil yanvar- sentabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi dinamikasi, *mlrd . so‘m*



So‘ngi yillardagi ularning o‘sish sur’atlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2021- yilda eng past o‘sish sur’ati qayd etilganini va 80,6 % qayt etilgan, shundan so‘ng 2022-yillarda yana o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, joriy davrda esa ko‘rsatkich 128,9 % qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish sur’atlari dinamikasi, % da



Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2024- yilning yanvar- sentabr oylariga nibatan ulushi 1,1 punktga ko’payib, 10,2 % ni yoki 3 340,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 29 350,9 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 89,8 % ulushi o‘zlashtirilib, 2024- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 1,1 punktga kamaydi.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar *(2025- yil yanvar- sentabr)*

	mlrd. so‘m	o‘sish sur‘ati, % *da*	hajmga nisbatan, % *da*
Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar	**32 691,4**	**128,9**	**100,0**
Markazlashgan investitsiyalar:	**3 340,5**	**145,1**	**10,2**
Budjet mablag‘idan	503,70	117,9	1,5
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	-	-	-
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lgan chet el kreditlari	2 836,80	151,3	8,7
Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	-	-	-
Markazlashmagan investitsiyalar:	**29 350,9**	**127,3**	**89,8**
Korxona o‘z mablag‘lari	3 431,4	152,0	10,5
aholi mablag‘lari	1 705,7	106,3	5,2
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	23 983,3	126,4	73,4
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	230,5	100,3	0,7

Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo‘yicha ulushi, % *da*
(2025- yil yanvar- sentabr)



Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo‘yicha ulushi, % *da*

(2025- yil yanvar- sentabr)



Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

(jami hajmdagi ulushi, % da)



2025-yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ulishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri kelib, 23 983,3 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 73,4 % tashkil etdi.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Hududlar	Jami		shu jumladan: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, % da	mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, % da
➢ **Viloyat bo‘yicha**	**32 691,4**	**128,9**	**23 983,3**	**126,4**
shaharlar:				
➢ Navoiy	3 893,6	123,2	3 052,0	128,3
➢ Zarafshon	962,3	108,8	297,5	102,3
➢ G‘ozg‘on	715,9	2,8 m.	663,6	3,0 m.
tumanlar:				
➢ Karmana	8 298,8	180,3	4 995,9	179,6
➢ Konimex	1 359,3	144,6	650,5	2,5 m.
➢ Qiziltepa	1 060,6	126,9	510,9	173,6
➢ Navbahor	1 393,7	2,4 m.	548,6	2,4 m.
➢ Nurota	7 986,9	2,2 m.	7 704,0	2,3 m.
➢ Tomdi	2 950,8	34,5	2 872,2	36,1
➢ Uchquduq	2 371,9	169,1	2 209,9	193
➢ Xatirchi	1 697,6	2,9 m.	478,2	4,2 m.

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta’minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

2025-yil yanvar- sentabr oylari yakunlari bo‘yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sish sur’atlari, % *da*



Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % *da*



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya’ni 61,7 foizi viloyatning uch hududida, jumladan Karmana tumanida – 25,4 %, Nurota tumanida – 24,4 % va Navoiy shahrida – 11,9 % investitsiyalar o‘zlashtirildi.

	Jami	Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo‘yicha	
		davlat	nodavlat
Jami, *mlrd. so‘m*	**32 691,4**	**3 036,7**	**29 654,7**
shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan, % *da*	100,0	9,3	90,7
qurilish-montaj ishlari	21 245,8	2 035,9	19 209,9
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari	9 698,7	844,0	8 854,7
boshqa harajatlar	1 746,9	156,8	1 590,1

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, *mlrd. so‘m*



2025-yil yanvar- sentabr oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Navoiy viloyati bo‘yicha mashina, uskunalar, qurilish-montaj ishlari- 65,0 foiz , transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari ulushi- 29,7 foiz hamda boshqa xarajatlar- 5,3 foizni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % *da*



Yangi qurilish
Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qurollantirish
Boshqalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilishi: qishloq xo‘jaligida 1 738,4 mlrd. so‘m (jami investitsiylar hajmidagi ulushi 5,3 %), qurilishda 466,9 mlrd. so‘m (1,4 %), tashish va saqlash sohasida 431,2 mlrd. so‘m (1,3 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 287,8 mlrd. so‘m (0,9 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlashda 200,6 mlrd. so‘m (0,6 %), turar-joy qurilishiga investitsiyalarda 1 041,9 (3,2%), elektr energiyasi, gaz, bug‘ va kondensiyalangan havoda 9 921,2 mlrd. so‘m (30,4 %), ishlab chiqarish sanoatida 13 415,2 mlrd. so‘m (41,0 %), tog’-kon sanoatida 2 544,5 mlrd. so‘m (7,8 %), suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanishda 1 693,9 mlrd. so‘m (5,2 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 89,4 mlrd. so‘m (0,3 %), axborot va aloqada 22,0 mlrd. so‘m (0,1 %), moliya va sug‘urta faoliyatida 30,6 mlrd. so‘m (0,1 %), kasbiy, ilmiy va texnik faoliyatida 14,2 mlrd. so‘m (0,04 %), ta’limda 253,0 mlrd. so‘m (0,8 %), san’at, ko‘ngil ochish va dam olishda 74,1 mlrd. so‘m (0,2 %), hamda boshqa faoliyat turlari bo‘yicha 466,5 mlrd. so‘m (1,4 %) ni tashkil etdi.

2025-yil yanvar- sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi

(umumiy hajmga nisbatan, % da)

	Hajmi, mlrd so‘m	umumiy hajmga nisbatan, % da	
		2024-y.	2025-y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	**32 691,4**	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:			
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1 738,4	2,6	5,3
tog‘-kon sanoati	2 544,5	14,5	7,8
ishlab chiqaradigan sanoat	13 415,2	45,2	41,0
elektr energiyasi, gaz, bug‘ va kondensiyalangan havo	9 921,2	25,4	30,4
suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish	1 693,9	0,3	5,2
qurilish	466,9	2,6	1,4
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash	200,6	1,5	0,6
tashish va saqlash	431,2	0,8	1,3
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	89,4	0,5	0,3
axborot va aloqa	22,0	0,3	0,1
moliya va sug‘urta faoliyati	30,6	0,1	0,1
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	14,2	0,1	0,04
ta’lim	253,0	0,4	0,8
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	287,8	0,4	0,9
san’at, ko‘ngil ochish va dam olish	74,1	0,2	0,2
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	1 041,9	3,8	3,2
boshqa faoliyat turlari	466,5	1,3	1,4

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar

(ming so’mda)



Ijtimoiy soha obyektlarining qurilishi

(2025- yil yanvar-sentabr oylari)

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 551,1 ming kv.m (2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 103,3 %) bo‘lgan 1 581 ta turar joylar, jumladan 465,2 ming kv.m. (2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 112,5 %) bo‘lgan 1 331 ta turar joylar qishloq joylarda ishga tushirildi.

Turar-joylarni ishga tushirish

	Xonadonlar soni, birlik	***Maydoni, ming kv.m***
Viloyat bo'yicha jami:	**1 581**	**551,1**
shaharlar		
Navoiy	63	21,9
Zarafshon	45	15,8
G'ozg'on	11	4,1
tumanlar		
Konimex	16	5,5
Qiziltepa	266	92,2
Navbahor	273	93,8
Karmana	299	100,7
Nurota	167	61,7
Tomdi	8	1,7
Uchquduq	17	5,7
Xatirchi	416	148,0

2025-yil yanvar- sentabr oylarida Navoiy viloyatida jami 10 489,7 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2024-yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 109,1 foizni tashkil etdi.



2025-yil yanvar- sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi



2025-yil yanvar-sentabr oylarida yangi qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 159,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, jami yangi qurilish ishlari hajmidagi yirik qurilish tashkilotlari ulushi 30,1 foizni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi
(2025- yil yanvar- sentabr oylari)

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.



Qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlar ulushi, % da



Ma’lumot uchun: *qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

Bajarilgan qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlarning ulushi va o‘sish sur‘ati, % *da*



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % *da*



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2025-yil yanvar- sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 34,9 foizi to‘g‘ri kelib, 2025-yil yanvar-sentabr oylari ko‘rsatkichi 0,8 punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yil yanvar- sentabrga nisbatan 107,0 foizni tashkil etgan holda 3 655,0 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 699,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 9 789,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,7 % va 93,3 % ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % *da*



Davlat mulki

Nodavlat mulk

Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari *(2025- yil yanvar-sentabr oylari)*

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m	Nodavlat mulk		Davlat mulk	
		mlrd. so‘m	ulushi, % da	mlrd. so‘m	ulushi, % da
Jami	**10 489,7**	**9 789,8**	**100,0**	**699,9**	**100,0**
Navoiy sh.	1 210,9	986,0	10,1	224,9	32,1
Zarafshon sh.	835,3	835,3	8,5	-	-
G‘azg‘on sh.	33,8	33,8	0,3	-	-
Konimex t.	138,8	112,5	1,1	26,3	3,8
Qiziltepa t.	1 123,7	863,8	8,8	259,9	37,1
Navbahor t.	602,7	562,5	5,8	40,2	5,7
Karmana t.	1 780,7	1 749,2	17,9	31,5	4,5
Nurota t.	363,7	322,7	3,3	41,0	5,9
Tomdi t.	723,3	712,2	7,3	11,1	1,6
Uchquduq t.	360,9	342,6	3,5	18,3	2,6
Xatirchi t.	572,5	525,8	5,4	46,7	6,7

Navoiy viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari, *% da*





Ma‘lumot uchun: *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 28,0 foiz tashkil etib, 2024-yilning yanvar-sentabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 1,4 punktga ko’paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2024-yilning yanvar-sentabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 0,8 punktga kamayib, 25,6 foizni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning yanvar-sentabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 0,6 foiz punktga ko‘paydi, 46,4 foizni tashkil etdi.

Jami bino va inshootlarni qurish – 7 922,0 mlrd. so‘m.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 42,5 % ni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 2,6 % punktga ko‘paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 57,5 % (2,6 % punktga kamaydi).



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 2,2 % punktga ko’payib va 5,6 % ni tashkil etdi.

Qolgan 94,4 % ni kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2024- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 2,2 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari- 268,5 mlrd. so‘m.



Hududlar kesimida eng yuqori hajm Karmana tumanida (1 780,7 mlrd. so‘m), Navoiy shahrida (1 210,9 mlrd. so‘m) va), Qiziltepa tumanida (1 123,7 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.



Hududlar kesimida eng kam hajm G‘ozg‘on shahrida (33,8 mlrd. so‘m), Konimex tumanida (138,8 mlrd. so‘m) va Uchquduq tumanida (360,9 mlrd. so‘m), to‘g‘ri keldi.



2025-yil yanvar-sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2025-yilning yanvar- sentabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Karman tumanida (1 659,5 mlrd. so‘m), Navoiy shahrida (883,4 mlrd. so‘m), Qiziltepa tumanida (723,1 mlrd. so‘m) va Tomdi tumanida (697,9 mlrd. so‘m) qayd etildi.

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so‘m
Navoiy viloyati	**10 489,7**	**109,1**	**8 662,6**
shaharlar:			
Navoiy	1 210,9	106,9	883,4
Zarafshon	835,3	101,2	640,4
G‘ozg‘on	33,8	102,3	19,1
tumanlar:			
Konimex	138,8	103,0	92,7
Qiziltepa	1 123,7	103,1	723,1
Navbahor	602,7	108,6	435,1
Karmana	1 780,7	3,2 m.	1 659,5
Nurota	363,7	66,8	270,5
Tomdi	723,3	49,0	697,9
Uchquduq	360,9	180,5	321,3
Xatirchi	572,5	107,9	430,1

Ma’lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.